

YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR.

Bakirova Dinora Xolmurod qizi Termiz
davlat pedagogika instituti Pedagogika
yo‘nalishi I kurs magistranti. Telefon: 91-220-88-48.

Boboyeva Sitora Ro‘zimaxmatovna
Termiz davlat pedagogika instituti PhD.

Annotatsiya: Maqolada 2022-2026 yillar davomida amalga oshiriladigan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ta’lim tizimidagi islohotlar, yutuqlar, muammolar va istiqbolli rejalar haqida so‘z boradi. Shuningdek, 2020 yil 23 sentyabrdan kuchga kirgan “Ta’lim to‘g‘risidagi” yangi tahrirdagi qonun, PISA, PIRLS, TIMSS, ICILS xalqaro baholash tizimini xalq ta’limi sohasida qo‘llanilishining mazmun-mohiyati haqida ba’zi mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Taraqqiyot strategiyasi, ta’lim tizimi, “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonun, PISA, PIRLS, TIMSS, ICILS, xalq ta’limi.

СТРАТЕГИЯ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА РЕФОРМЫ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ.

Аннотация: В статье рассматриваются реформы, достижения, проблемы и перспективные планы в системе образования в рамках новой стратегии развития Узбекистана, которая будет реализована в 2022-2026 годах. Также приводятся некоторые комментарии относительно содержания и сути новой редакции Закона «Об образовании», вступившей в силу 23 сентября 2020 года, и применения международных систем оценки PISA, PIRLS, TIMSS и ICILS в сфере государственного образования.

Ключевые слова: стратегия развития, система образования, закон «Об образовании», PISA, PIRLS, TIMSS, ICILS, государственное образование.

DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN REFORMS IN THE EDUCATION SYSTEM.

Abstract: The article discusses reforms, achievements, problems, and promising plans in the education system of the New Uzbekistan Development Strategy, which will be implemented in 2022-2026. Also, some comments are made on the content and essence of the new edition of the Law "On Education", which entered into force on September 23, 2020, and the application of the international assessment systems RISA, PIRLS, TIMSS, and ICILS in the field of public education.

Keywords: Development strategy, education system, Law "On Education", PISA, PIRLS, TIMSS, ICILS, public education.

Yangi O'zbekiston – bu ibora bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan ezgu g'oyadir. Bu g'oya zamirida: bir tomondan, bugungi va ertangi avlodlarimizning "Uchinchi Renessans" poydevorini qo'yishdek ezgu maqsad-muddaolari; ikkinchi tomondan, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi Uyg'onish davrlariga asos solgan ulug' ajdodlarimiz, alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari; uchinchi tomondan, bunyodkorlik, yaratuvchanlik, har doim o'qish va izlanishga da'vat o'z mujassamini topgan.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish –Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Chunki bugungi O'zbekiston – kechagi O'zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas". Albatta, Birinchi va Ikkinchi Renessans kabi Uchinchi Renessans ham uzoq davom etadigan jarayon. Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayoni besh o'n yil emas, ancha katta va mashaqqatli davrni talab qiladi. Buning uchun, avvalo, minglab iste'dodli kadrlar, iqtidorli zamonaviy yoshlar, fidoyi insonlar nihoyatda zarur. Bu borada

Uchinchi Renessansning to'rt uzviy halqasiga, bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa Yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuniga aylantirishdan iborat.

Bugungi kunda ta'lim - madaniyatni shakllantirishda, shaxsni rivojlantirishda va demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: Ta'lim sifatini oshirish - Yangi O'zbekistonni rivojlantirishning yagona to'g'ri yo'lidir.

Ta'lim sohasini rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosiy o'rin tutadi, chunki aynan qonunchilik normalari nafaqat chegaralarni, balki butun ta'lim jarayonida asos bo'lgan tamoyillarni ham belgilaydi. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririga ta'lim olish huquqi to'g'risidagi moddaning kiritilishi fuqarolar uchun ko'pgina afzalliklarni yaratadi:

- Birinchidan, bu ta'limni insonning asosiy huquqi sifatida qabul qilishni kuchaytiradi.
- Ikkinchidan, ushbu huquqning mustahkamlanishi uning yanada ishonchli va barqaror himoya qilinishini ta'minlaydi.
- Uchinchidan, aniq me'yor va tamoyillarga asoslangan qulay ta'lim muhitini yaratishga yordam beradi, bu esa mamlakat ta'limini rivojlantirishga xizmat qiladi.
- To'rtinchidan, bu barcha fuqarolar uchun ta'lim olishda ko'proq teng imkoniyatlar yaratishga yordam beradi va ijtimoiy tengsizlikni kamaytiradi.

Bundan tashqari, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida aholiga ta'limning barcha bo'g'inlaridan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, ta'lim tizimini yanada yuqori sifat darajasiga ko'tarishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu innovasion iqtisodiyotga muvaffaqiyatli o'tish uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash zarurati bilan bog'liqdir. Strategiyada mazkur soha bo'yicha belilangan asosiy maqsadlarga to'xtaladigan bo'lsak, ular quyidagilardan iborat:

- bolalarni maktabgacha ta'lim va tayyorlov guruhlar bilan to'liq qamrab olishni ta'minlash;
- har yili ta'lim tashkilotlariga 500 nafar xorijiy mutaxassislarni jalb etish;
- nodavlat o'rta umumta'lim tashkilotlar sonini 1 000 taga yetkazish;
- tarbiyachilar va o'qituvchilarni xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish;
- oliy ma'lumotli yoshlar qamrovini 50 foizga yetkazish;
- 10 ta mahalliy oliy ta'lim muassasalarini dunyodagi eng nufuzli 1000 ta oliy ta'lim muassasasi reytingiga kirishiga erishishidir.

Shuningdek, 2022 yil 18 iyuldagi "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida xotin-qizlarning ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashga doir chora tadbirlar to'g'risida" gi Prezident qaroriga muvofiq, 2022-2023 o'quv yilidan boshlab, oliy ta'lim muassasalarining barcha shaklida o'qiyotgan talaba qizlar uchun 7 yilga mo'ljallangan foizsiz kreditlar ajratilishi yo'lga qo'yildi. Talaba o'qishni 311 bitirganidan so'ng 7 oydan boshlab, olgan kreditlarini qaytaradi.

Mamlakatda 2019-yilning oktyabrida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan.

Yoshlarga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarish, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, o'rta va oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan

yaxshilash maqsadida 2020 yil 23 sentyabr kuni “Ta’lim to’g’risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Qonun bilan jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi. Unga binoan (7-modda) O‘zbekiston Respublikasida ta’lim quyidagi turlarda amalga oshirilishi belgilandi, xususan: - maktabgacha ta’lim va tarbiya; - umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim; - professional ta’lim; oliy ta’lim; - oliy ta’limdan keyingi ta’lim; - kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; - maktabdan tashqari ta’lim.

Bundan tashqari Qonunning 15-moddasida quyidagi ta’lim olish shakllari o‘z aksini topdi:

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish (kunduzgi);
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);
- dual ta’lim;
- oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish;
- katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish;
- inklyuziv ta’lim;
- eksternat tartibidagi ta’lim;
- mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

Ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda xorij tajribalarni o‘rganish, tizimga xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, tizimda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi.

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish, xalqaro baholash jarayonlarida munosib qatnashish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rishga yo‘naltirilgan PISA, TIMSS, PIRLS xalqaro baholash dasturlari doirasidagi topshiriqlar bilan ishlash

ko'nikmasini shakllantirish, o'qituvchi va o'quvchilarni tayyorlash, ularning bilim, ko'nikma va kompetentsiyalarini, shuningdek, o'quvchilarda ijodiy va mantiqiy fikrlash hamda tegishli fan yo'nalishlari bo'yicha savodxonligini rivojlantirish, o'qituvchilarga amaliy va uslubiy yordam berish maqsadida Xalq ta'limi vazirligi va A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti tomonidan Stesting elektron platformasi (<https://stesting.uz>) ishlab chiqildi. Ushbu platformada 1449 ta test-topshiriqlari, 103 ta mediakurslar, 40 ta kimyo va biologiya fanlaridan malaka oshirish media kurslari o'rin olgan. Shulardan, PISA xalqaro baholash tadqiqotiga oid 30 ta blok va 489 ta savollar bo'lsa, TIMSS xalqaro baholash tadqiqotiga oid esa 8 ta fanga tegishli 583 ta nazorat savollar joy olgan va PIRLS xalqaro baholash tadqiqotiga oid 30 ta blokdan iborat 377 ta savollar platformaga joylashtirilgan. Stesting elektron platformasi statistikasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2022 yilning fevral'-iyul' oylari davomida yurtimizdagi 7750 dan ortiq maktab ushbu elektron platformadan ro'yhatdan o'tgan bo'lib, ularda 2 500 000 dan ortiq maktab o'quvchilarimiz test-topshiriqlarni bajarib kelmoqda. Ushbu bajarilgan test topshiriqlar 12 nafar malakali pedagog-mutaxassislar tomonidan o'zbek va rus tillarida tekshirilib, baholanmoqda. Hozirda 2 000 000 dan ortiq test-topshiriq tekshirilib, baholandi.

Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Davlatimizga ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Ta'limga sarmoya kiritish mamlakat kelajagiga sarmoya kiritish degan g'oyaga tayanadigan bo'lsak, ta'limni rivojlantirish nafaqat yuqori malakali kadrlarni shakllantiradi, balki ijodiy fikrlash, tadqiqotlar va yangi texnologiyalarni ishlab chiqishni rag'batlantiradi. Ushbu omillar bugungi kungi qiyinchiliklarga moslasha oladigan barqaror jamiyatni shakllantirishga yordam beradi.

Yoshlarni innovasion jamiyat qurishda mas'uliyatli va samarali joylarga tayyorlash uchun ta'limning yuqori standartlariga zudlik bilan intilish muhimdir. O'zbekistonda ta'lim tizimiga xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda o'quvchilarning bilim darajasini baholash va monitoring qilishning "Milliy dasturi"ni yaratish hozirgi kun talabiga mos keladi. Yana shuni aytish joizki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o'zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev. Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatdarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T., "O'zbekiston". 2017. 23 bet
2. Mirziyoyev. Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T., "O'zbekiston". 2022. 416 bet
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson ma'nfaatlari ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yiligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. - Toshkent: O'zbekiston. 2017
4. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Mas'ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: Akademiya, 2013.
5. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор. М.А.Рахимов. - Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.
6. O'zbekistonning eng yangi tarixi. R.H.Murtazayeva, A.A.Ermetov, A.A.Odilov. - Toshkent, 2023.
7. O'zbekistonning eng yangi tarixi xrestomatiyasi. A.Sabirov, S.Pulatova. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. 328 b.
8. Noveyshaya istoriya Sentralnoy Azii: Problemi teorii i metodologii: sb. statey / otv. red. sost. A.K.Alikberov,

М.А.Рaximov / Rossiyskaya akad. nauk. In-t vostokovedeniya. In-t istorii AN RUz.
— М.: Institut vostokovedeniya RAN, 2018. - 304 s.

9. Saydaliyeva N, Usarova F.

Strategiya deystviy - osnova novogo Uzbekistana. Tashkent: Nodirabegim, 2020. - 302 s.